

Toshkent Davlat Sharqshunoslik
Instituti yapon filologiya kafedrası
Magistranti Haydarova Umida Xojiakbar qizi
haydarovaumida11@gmail.com

tel. nomer: +99891 6882423

“HOJOKI” ASARIDA DINIY-FALSAFIY MA’NO IFODALAGAN METAFORALAR

Maqolada yapon mumtoz adabiyoti namunasi “Hojoki” asari haqida tadqiqotlardan foydalangan holda ma’lumotlar berib o’tiladi va zen-buddizm ta’limoti, uning ta’sirida asarda ifodalangan o’tkinchilik g’oyasi va shu ma’noni ifodalovchi metaforalar haqida fikr yuritiladi.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev shunday ta’kidlaydi: “Farzandlarimizni mustaqil fikrlari, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dolzarb ahamiyatga ega bo’lgan masala hisoblanadi”¹.

Darhaqiqat, soniya sayin yangilanib borayotgan axborot asrida mustahkam bilim, axborot xurujlariga qarshi fikrga ega bo’lgan yoshlarni voyaga yetkazish zamon talabidir. Shu sababli nafaqat o’z tili, tarixi, madaniyatini bilish, balki jahon xalqlari tili, adabiyoti, iqtisodiyotidan ham xabardor bo’lish bugungi kun oldimizga qo’yayotgan muhim masalalardan biridir.

Yaponiya o’zining sharqona ko’hna tarixi, yuksak madaniyati va ma’naviy boyliklari bilan jahon adabiyoti xazinasiga salmoqli hissa qo’shgan davlatlar sirasiga kiradi. Kunchiqar mamlakat ming yildan ziyod tarixiga ega bo’lgan boy adabiyotini yaratgan. Yapon klassik adabiyoti bo’lmish bu ma’naviy xazinalar ko’lam jihatdan

¹ Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O’zbekiston, 2017. 157-158-b.

ham, mavzu va g'oyaviy yo'nalish nuqtai nazaridan, janrlari va badiiyligi tomonidan ham nihoyatda rang-barangdir.

Hozirda Yaponiya bilan olib borilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy aloqalar bu mamlakat tili, tarixi, madaniyati, adabiyotiga bo'lgan qiziqishning ortishiga ham sabab bo'lmoqda. O'zbek yaponshunoslik maktablarida til va yapon zamonaviy adabiyoti keng qamrovda tadqiq qilinayotgan bo'lsa-da, yapon mumtoz adabiyoti va o'rta asrlar dini, tili o'zbek yaponshunoslik maktabi uchun hali yangi mavzu hisoblanadi. Shu bois muallif ayni shu davrga murojaat etib, Kamakura davrining adabiy meroslaridan biri Kamono Chomeining "Hojoki" asari va unda ifodalangan g'oya, bu g'oyani aniqroq tasvirlashga yordam bergan lingvistik vositalar to'g'risida so'z yuritdi.

Kamono Chomei (1155-1216) yapon yozuvchisi, waka janrida ijod etgan shoir, yapon she'riyati tarixida muhim o'rin tutgan ijodkordir. U ma'lumotlarga ko'ra 1155-yil Kyoto shahrida Shinto monaxi oilasida dunyoga kelgan. Yoshligidan san'at va adabiyotdan saboq oladi. Shinto oilasida tug'ilgan bo'lishiga qaramay, 1204-yilda Buddizmni qabul qildi va Kamo ibodatxonasida monax sifatida faoliyat yuritadi. Umrining so'nggi yillariga borib, u tarkidunyochilik yo'lini tanlaydi va jamiyatdan ajralib o'rmonda hayot kechiradi. Keene Donald 1955-yilda nashr ettirgan "Ilk o'rta asrlardan XIX asr o'rtalarigacha bo'lgan yapon antologiyasi" nomli kitobida shunday yozadi: "Kamono Chomei regarded at the violence and chaos of his lifetime Buddhist insight, and wrote lyrically and reflectively about the tragedy of human life"², ya'ni "Kamono Chomei o'z hayot tarziga buddizm nigohi bilan boqib, zo'ravonlik va tartibsizlikdan iborat deb hisoblaydi va insoniyat hayoti fojeasi haqida lirik va ta'sirchan asar yozadi". Bu asar bugungi davr uchun qimmatli hisoblangan "Hojoki"dir.

"Hojoki" ikki tomonlama yaratilgan asar sifatida tilga olinadi:

1. Tarixiy

² Keene Donald "Anthology of Japanese literature, from the earliest era to the mid-nineteenth century" UNESCO collection of representative works. New York : Grove Press.1955-y.85-b.

2. Falsafiy-diniy ³

Uning tarixiylik xususiyati shundaki, o'sha davrda Yaponiyaning poytaxti hisoblangan Kyoto shahrida sodir bo'lgan zilzila, kuchli to'fon-tsunami, ocharchilik, yong'in hamda poytaxtning ko'chishi haqidagi tarixiy haqiqatni keltirib o'tadi. Bu hodisalarning qanchalik tarixiy haqiqatga yaqinligi to'g'risida olib borilgan tadqiqot ishlarini kuzatar ekanmiz, Miumura Katoning olib borgan "Hojoki va tarix" ⁴ nomli ilmiy ishida "Hojoki" da aks ettirilgan angen davri yong'ini haqidagi ma'lumotlar haqiqatga to'g'ri kelishi, bu haqida bir qancha tarixiy manbalarda ham qayd etilganligi, lekin "Hojoki" da aks ettirilgani kabi ko'lami yuqori bo'lmaganligi aytib o'tiladi. Xususan, tarixchilarning asarlarida aynan yong'in Taira Kiyomori hukmronligi ostida sodir bo'lganligi haqidagi ma'lumotlar uchraydi. Biroq, to'fon hamda ocharchilik to'g'risidagi manbalarning kamligi, bu haqida biron bir tarixiy hujjat keltirish qiyinligi bois, bu narsalarni Chomei dunyoning o'tkinchiligini ifodalash maqsadida to'qib chiqargan bo'lishi mumkinligi ham aytib o'tiladi.

Falsafiy asar ekanligiga doir ko'plab ilmiy ishlar olib borilib, ularda "Hojoki" dunyo hamda inson umri haqidagi oddiy haqiqatlarni falsafiy tarzda ochib berganligi aytib o'tilgan. Diniy chizgilar sifatida esa "Hojoki" buddizm ta'limotining Zen yo'nalishi ta'siri ostida yozilganligi bayon etiladi. Unda aynan buddizm dini yo'nalishlari to'g'risida ma'lumotlar yoinki buddizm da bunday deyilgan, bu gunoh, bu savob deb aytilgan chizgilar uchramasa-da, yashash, dunyo haqidagi qarashlarda Zen buddizmining ta'siri yaqqol ko'zga tashlanadi⁵.

Chomei o'zi yashagan kulbadan turib fasllar almashinuvini, hayot o'zgarishini kuzatib borgan va ulardan his qilganlarini qog'ozga tushirgan. Shu bois unda keltirilgan 13 bobda Kyoto shahrining fasllar va tabiiy ofatlar natijasida o'zgarishi, jamiyatdagi holatlar haqida bayonat berib, undan xulosa yasaydi.

³ Takeda Tomohiro "方丈記" Nihon kabushikigaisha. 2004-y. 53-b.

⁴ Miumura Kato "Hojoki va tarix" Oosaka University. 1988-y.159-b.

⁵ Keene Donald "Anthology of Japanese literature, from the earliest era to the mid-nineteenth century" UNESCO collection of representative works. New York: Grove Press.1955-y.101-b.

Ayrim tadqiqotchi olimlar, xususan, Yamamoto Hajime⁶ olib borgan ilmiy ishda “Hojoki”ning badiiyati haqida to‘xtalar ekan, yozuvchining metaforalardan unumli foydalangani va shu asosda dunyoning o‘tkinchi ekanligini yanada aniq topilmalar, o‘xshatishlar bilan aks ettirgani aytiladi.

「ゆく川の流は絶えずして、しかも元の水にあらず」⁷, ya’ni “Oqayotgan daryo bir zum to‘xtamas, bir nuqtada turgan suv aynan oldingisi bo‘lolmas” ma’nosini ifodalovchi bu jumlada oqayotgan daryo dunyo, suv esa inson metaforasi ekanligi ta’kidlanadi. Dunyoning bir on to‘xtamasdan, uzviy davom etishi, bu dunyoda yashovchi inson daryoning suvi misoli bir joyda bor-yo‘g‘i bir lahzadan ortiq tura olmasligi umrning ko‘z ochib yumgunga qadar o‘tishiga ishoradir.

Yoki yana bir o‘rinda quyidagicha misol keltiriladi: 「朝に死に、夕べに生まるるならひ、ただ、水の泡にぞ似たりける」 “ Insonning tongda vafot etib, shomda tug‘ilishi umrning xuddi suv ustida suzib yuruvchi pufakchasi misoldir ”. Johnson va Lakoff (1980) ilmiy tahlili asosida “inson bu suv pufakchasi” metaforasini tahlil qilamiz:

Suv pufakchasi.....inson

Tez yo‘qolishi.....umrning qisqaligi

Izsiz g‘oyib bo‘lishi.....umr o‘tkinchi

Ko‘rinib turibdiki, Chomei metaforalar orqali dunyoning o‘tkinchi ekanligini tasvirlashga uringan. Asarda bu kabi badiiy bo‘yoqdorlik, majozlar ko‘plab keltiriladi: 「その主と住と、無常を争ふさま、いはば朝顔の露にことならず。あるいは露落ちて花残れり。残るといへでも朝日にかれぬ。あるいは花しぼみて、露なほ消えず。消えずといへでも夕べを待つことなし。」

⁶ Yamamoto Hajime “Hojoki badiiyati” . 2006y. Kanazawa universiteti. 43-bet

⁷ Misollar Kamono Chomei «Hojoki (zen)» 2007y. nashridan olindi

“Inson va uning yashash joyi o‘tkinchidir, muqoyasa qilinsa, ular o‘rtasidagi munosabat erta tonggi shabnam hamda shabnam qo‘ngan gulga o‘xshaydi. Ba’zan shabnam gulni tark etsada, gul o‘z jozibasini, gulini saqlab qola oladi, ammo tonggi quyosh shafqatsizlarcha uning umriga yakun yasaydi. Yoxud gul erta barglarini yopib shudring uning ichida qolishi mumkin, lekin bu uning abadiyligini ifodalamaydi. Shom payti yana bu hayotni tark etadi ”.

Bu yerda qo‘llangan majoz inson va uning yashash joyiga nisbatan qo‘llangan. Manzil qanchalik hashamdor, chiroyli bo‘lmasin bu inson umrini uzaytirib bera olmaydi yoki unga abadiylik baxsh etmaydi. Avval inson yoxud uy yoinki, aksincha, dastlab uy, keyin inson birin –ketin o‘tib boradi. Yozuvchi buni tonggi pechakgul va unga qo‘ngan shudringga o‘xshatadi. Sababi pechakgul tongda ochilsa-da, quyosh chiqqach guli so‘lib qoladi, undagi shudring hayotiga ham quyosh nuri yakun yasaydi. Chomei tabiat va inson omilini birlashtirib ajoyib metafora yaratadi. Yozuvchi inson umri o‘tkinchi ekanligiga urg‘u beradi. Ko‘pchilik tadqiqotchilar bu g‘oya zen-buddizm ta’siri ekanligini aytishadi.

Demakki, asar asosida o‘tkinchilik g‘oyasi buddizmdan ta’sirlanish natijasida yoritilar ekan, bu din ta’limotiga ko‘ra o‘tkinchilik nima?

1. 刹那無常：現象は—刹那—瞬に生滅すること、常に変わりゆくものだという姿を指す⁸(Ayni damda mavjud narsalar , bir zumda g‘oyib bo‘ladi, lekin shuning bilan birgalikda hamisha o‘zgarib boradi) .

2. 相續無常：人が死んだり、草木が枯れたり、水が蒸発したりするような生滅の命の過程の姿を見る場合を指して言う」（「仮講された「方丈記」の構図」⁹. (Inson o‘lar, daraxt-u maysalar so‘lar, suvlar qurir va hayotning ayni shu ko‘rinishdagi o‘tkinchi ekanligi abadiy o‘tkinchilik deb ataladi).

⁸ 砂糖夏雄・Hosei University・2007年. 82-bet

⁹ 砂糖夏雄・Hosei University・2007年. 89-bet

“Hojoki (zen)” Takeda Tomohironing 2007 -yilda yozgan ilmiy ishida (『方丈記（全）』武田友宏) asarda ifodalangan o‘tkinchilik g‘oyasiga e’tibor qaratadi:

1. 人も住まいも、人の世の続く限りあり続ける。永遠不滅という言葉は大げさだとしても、そう思うくらいに長く継続する。個々の人と住まいは「無常」の真理の下にある以上、変化するしかない (p. 20)

“Yashash joy ham unda yashovchi inson ham, odamlar yashay olar ekan to u oxiriga yetmaguncha davom etishi, yoinki abadiy degan so‘z aslida mavjud emasdek tuyulsa-da, lekin hayot abadiy. Har bir odamning hayoti va yashash joyi “o‘tkinchi” va o‘zgaruvchidir”.

2. 長明にとって無常なしの人生はありえない。「無常」だからこそ人生は生きる価値があり、生きる喜びも生まれてくる。 (p.22)

“Kamono Chomei uchun abadiy hayot mavjud emas. “O‘tkinchi” bo‘lganligi uchun ham dunyo qadrga ega, yashash quvonchi tug‘iladi”.

Tadqiqotda asarning o‘tkinchilik g‘oyasi bilan sug‘orilganligi aytiladi va yozuvchi dunyo undagi hayot, inson, baxt, quvonch, g‘am, tashvish hamma-hamma narsa o‘tkinchi ekanligini, shuning uchun inson boylik to‘plash, hashamatli saroy qurish uchun o‘zini o‘tdan cho‘g‘ga urishi behuda urinishlar ekanligini, insonning yashashdan maqsadi kamolotga erishish bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi.

Yana bir tadqiqotchi Hosono Tetsuo 1970-yilda “Hojoki” asarida tasvirlangan (「方丈記の「世の不思議」」細野哲雄) davr chizgilari, jamiyat va insonlar hayotida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar orqali bu dunyoning o‘tkinchiligi aytib o‘tiladi degan xulosaga keladi.

1. 長明の気持ちからすると、一般的に人の世の無常を説くための具象的な例として、自分が体験した京都の惨状を引いたというよりは、京都とい

う都のはかなさ、むなしさを強調することに特殊なアクセントをおいて叙述を進めているのである。(Chomei nuqtai nazaridan kelib chiqadigan bo'lsak, odamlarning hayoti o'tkinchiligini oddiy va tushunarli tarzda ifodalash uchun o'zi boshidan o'tkazgan Kyotoning daxshatlari haqida emas, Kyoto deb atalgan shaharning o'tkinchiligiga urg'u bergan).

2. 大火、地震、飢饉、辻風といった具体的な自然災害・人的災害を例に挙げ、その状況を詳しく記述することにより、「人とすみかの無常」を説いている。(Yong'in, zilzila, ocharchilik, tsunami kabi tabiat ofatlarini tasvirlash hamda u haqida aniq ma'lumotlar keltirishdan maqsad inson va dunyoning o'tkinchiligini metafrayik tarzda ochib berishdan iboratdir).

Ko'rinib turibdiki, yozuvchi o'z o'y-fikrlari, e'tiqodini ifodalashda metaforalardan unumli foydalangan va bu orqali tabiat hamda inson omilini chambarchas bog'lab buddizmdagi "mujiyokan", "o'tkinchilik" g'oyasini tasvirlagan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Carter Steven (1999) "Medival japanese writers"(67-b)nomli asarida "Kamono Chomei expeired his own personal disappointment and decided to use this disappointment as a metaphor and turning his back on the worldland retreat into Buddhism.The Hojoki conveys a Buddhist understanding of the vanity of human effort and the impermanence at material things ", ya'ni "Kamono Chomei o'z boshidan o'tkazganlaridan metafora sifatida foydalanib, bu orqali dunyoning o'tkinchiligini ifodalashga harakat qilgan hamda dunyodan yuz o'girib buddizmdan panoh izlagan. Hojoki asari inson hatti-xarakatlaridagi manmanlik, dunyodagi hamma narsalarning doimiy emasligi haqidagi qarashlarini buddistik nuqtai nazardan ifodalab bergan"

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Keene Donald (1955) “Anthology of Japanese literature, from the earliest era to the mid-nineteenth century” UNESCO collection of representative works. New York : Grove Press
2. Takeda Tomohiro “方丈記” Nihon kabushikigaisha; 2004
3. Miumura Kato “Hojoki va tarix” 1988; Oosaka University
4. 日本現代辞典・Japan print;1980
5. 砂糖夏雄・Hosei University・2007 年
6. 「無常とは何か」山本一；2009 年；Japan print

Toshkent davlat Sharqshunoslik instituti lingvistika yo‘nalishi, yapon filologiyasi kafedrası 2-bosqich magistratura talabasi Haydarova Umida Xojiakbar qizining “ “Tsuredzuregusa” asarida qo‘llangan metaforalarning semantikasi” mavzusida ilmiy maqolasiga

TAQRIZ

Zamonaviy til tadqiqotlarida muhim o‘rinni egallab kelayotgan kognitiv lingvistika sohasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar salmoqli o‘rinni egallaydi. Mazkur maqolada kognitiv lingvistikaning bir bo‘g‘ini hisoblangan metaforalar haqida so‘z yuritilgan.

Maqolada asar doirasida ko‘rib chiqilgan metaforalar va ular anglatgan ma’nolar ilmiy jihatdan asoslangan. Shuningdek buddizmning zen yo‘nalishi va “o‘tkinchilik” g‘oyasi haqida ma’lumotlar berilgan. Dalillarni isbotlashda ko‘pgina ingliz va yapon tilidagi manbalardan foydalanilgan. Maqolada keltirilgan barcha fikrlar asoslangan hamda muammoning yechimiga obyektiv jihatdan yondashilgan. Kelgusida barcha ko‘rsatilgan dalillar ushbu mavzuda olib borilayotgan tadqiqot ishlari uchun amaliy manba bo‘lishi mumkin.

Ushbu maqola ayrim kamchiliklardan holi emas. Masalan, asardan olingan jumlar badiiy jihatdan yoritilmagan. Haydarova U.X. kelgusida mavzu tadqiqotida chuqurroq izlanishlar olib borsa, tilshunoslikda izlanishlar olib boruvchilar uchun foydali manba bo‘ladi, deb hisoblayman. Ilmiy maqola me’yoriy qoidalar asosida, ilmiy yondashilgan holda amalga oshirilgan va ijobiy baholandi.

Taqrizchi: Yuldashev Toboshir
